

Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish siyosati

Ushbu Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish siyosati (keyingi o'rnlarda Maxfiylik siyosat deb yuritiladi) PARAMEDICS MChJ (keyingi o'rnlarda Operator deb yuritiladi) Foydalanuvchi haqida olishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi, Foydalanuvchi esa PARAMEDICS Servisidan (keyingi o'rnlarda Servis deb yuritiladi) foydalanadi.

1. TERMINKLAR

- 1.1. Ushbu Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish siyosatida quyidagi atamalar qo'llaniladi:
 - 1.1.1. "**Shaxsga doir ma'lumotlar**" - bu ma'lum bir shaxsga (shaxsiy ma'lumotlar mavzusiga) bevosita yoki bilvosita tegishli har qanday ma'lumotni anglatadi.
 - 1.1.2. "**Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish**" - avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda, shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, qayd etish, tizimlashtirish, toplash, saqlash, aniqlik kiritish (yangilash, o'zgartirish), shu jumladan, foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish), shaxssizlashtirish, blokirovka qilish, o'chirish, yo'q qilish kabi amallar (operatsiyalar) to'plami.
 - 1.1.3. "**Shaxsga doir ma'lumotlarni maxfiyligi**" - bu Operator yoki boshqa uchinchi shaxsning shaxsga doir ma'lumotlarni ularni subyekti roziliginiz yoki boshqa qonuniy asoslarsiz tarqatilishining oldini olish majburiyati.
 - 1.1.4. "**Servisdan foydalanuvchi**" (bundan buyon matnda Foydalanuvchi deb yuritiladi) – Internet tarmog'i orqali Servisdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan Servisdan foydalanuvchi shaxs.
 - 1.1.5. "**Servis**" - bu tovarlar va xizmatlarning potentsial iste'molchilar uchun mo'ljallangan tibbiyot ekotizimidagi ishlar va xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot-texnologik resursi.
 - 1.1.6. "**Hamkor**" - Foydalanuvchilarga tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatish (shu jumladan, ishlarni bajarish) bo'yicha ishlarni amalga oshiruvchi hamda Foydalanuvchiga Servis va Oferta shartlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi muvofiq Servis orqali xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzishni taklif qiluvchi jismoniy shaxslar (huquq va muomala layoqatli fuqarolar), davlatning amaldagi qonunchiligi talablariga javob beradigan shaklda tuzilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'z-o'zini ish bilan ta'minlaydigan fuqarolar.
 - 1.1.7. "**Geolokatsiya ma'lumotlari**" – Foydalanuvchi qurilmasining joylashuvi geografik koordinatalari. Geolokatsiya ma'lumotlar uzatish funksiyasi Servisning asosiy maqsadi uchun muhim tarkibiy qism hisoblanadi.

2. UMUMIY QOIDALAR

- 2.1. Foydalanuvchining Servisdan foydalanishi bu Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash siyosatini qabul qilish demakdir.
- 2.2. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish siyosati shartlari bilan Foydalanuvchi rozi bo'lmasa ushbu Foydalanuvchi Servisdan foydalanishni to'xtatishi kerak.
- 2.3. Ushbu Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish siyosati faqat Servisga nisbatan qo'llaniladi. Operator Foydalanuvchi o'tishi mumkin bo'lgan Servisda mavjud bo'lgan uchinchi tomon saytlari va mobil ilovalarni nazorat qilmaydi va ular uchun javobgar emas.
- 2.4. Operator Foydalanuvchi taqdim etgan shaxsga doir ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirmaydi.

3. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH SIYOSATI PREDMETI

3.1. Ushbu Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish siyosati Servisda ro'yxatdan o'tganda va/yoki buyurtmani joylashtirishda Operatorning talabiga binoan Foydalanuvchi taqdim etadigan shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini oshkor qilmaslik va himoyalash majburiyatlarini belgilaydi.

3.2. Ushbu Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish siyosati bo'yicha ishlov berishga ruxsat etilgan shaxsga doir ma'lumotlar Foydalanuvchi tomonidan ro'yxatdan o'tish paytida va/yoki buyurtma berish paytida Servisdagi shaklni to'ldirish orqali taqdim etiladi va quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin: familiyasi, ismi, sharifi (oxirgisi - agar mavjud bo'lsa);

- jinsi;
- tug'ilgan sanasi;
- tug'ilgan joyi;
- fuqaroligi;
- shaxsini tasdiqlovchi hujjatning ma'lumotlari;
- yashash joyi;
- ro'yxatdan o'tilgan joyi;
- ro'yxatdan o'tilgan sanasi;
- geolokatsiya ma'lumoti;
- anamnez;
- diagnoz;
- ko'rsatiladigan tibbiy yordam turi;
- tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlari;
- tibbiy yordam ko'rsatish muddati;
- tibbiy yordam ko'rsatish joyi;
- ko'rsatiladigan tibbiy yordam miqdori, shu jumladan ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- tibbiy yordam so'rash natijasi;
- tibbiy ekspertiza, tibbiy ko'rik va tibbiy tekshiruvlar va ularning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar; qo'llaniladigan tibbiy muolajalar va yordam standartlari.

4. FOYDALANUVCHINING SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARINI TO'PLASH MAQSADLARI

4.1. Operator Foydalanuvchi shaxsga doir ma'lumotlaridan Operatorning Hamkorlari tomonidan talab qilinadigan hajmlarda foydalanuvchiga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, amaldagi qonunchilik talablariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilish, ko'rsatilayotgan tibbiy yordam hajmi va sifati ustidan nazoratni ta'minlash, Servisdan foydalanish qulayligini oshirish, statistik ma'lumotlarni toplash, ishlov berish va taqdim etish maqsadida foydalanadi.

Foydalanuvchining geolokatsiya ma'lumotlarini toplashdan maqsad Servisning asosiy vazifalarini bajarishdir. Geoma'lumotlar Foydalanuvchining aniq joylashuvini aniqlashga yordam beradi, chunki Hamkor tomonidan Servis orqali ko'rsatayongan xizmatlari Foydalanuvchi hududida geolokatsiya orqali tanlangan manzil bo'yicha taqdim etiladi. Hamkorlar Foydalanuvchining xaritadagi belgilangan manzilini aniqlaydilar va kerakli joyga boradigan yo'lni rejalashtiradilar.

Geolokatsiya ma'lumotlarining funksiyasi va uzatilishiga ruxsat berish Servisning asosiy maqsadi uchun muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Geolokatsiya ma'lumotlarining vazifasi va uzatilishiga kirishga ruxsat bo'lmasa, Servisdan foydalanish mumkin emas.

5. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH USULLARI VA SHARTLARI

5.1. Foydalanuvchining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish hech qanday vaqt chegarasisiz, har qanday qonuniy yo'l bilan, shu jumladan avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan shaxsiy ma'lumotlar axborot tizimlarida amalga oshiriladi.

5.2. Operator faqatgina Foydalanuvchining Servisga qo'yan buyurtmasini bajarish maqsadida uchinchi shaxslarga shaxsiy ma'lumotlarni uzatish huquqiga ega ekanligiga Foydalanuvchi roziligin beradi.

5.3. Foydalanuvchining shaxsga doir ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlariga faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartib va asoslar bo'yicha berilishi mumkin.

5.4. "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 45-moddasining 3-qismida ko'rsatilgan hollarda, bemorning tibbiy sirini tashkil etuvchi shaxsiy ma'lumotlarini Foydalanuvchi yoki uning qonuniy vakili rozilgisiz berilishi mumkin:

- holati tufayli o'z irodasini bildira olmagan fuqaroni tekshirish va davolash maqsadida;
- yuqumli kasalliklar, ommaviy zaharlanish va zararlanishlarning tarqalishi xavfi bo'lganda;
- tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning, surishtiruv, tergov organlarining, prokuraturaning va sudning ishni sudga qadar yuritish yoki sud tekshiruvi o'tkazilishi munosabati bilan so'rovi bo'yicha;
- o'n to'rt yoshga to'imagan voyaga yetmagan shaxsga yordam ko'rsatilayotganda uning ota-onasi yoki qonuniy vakillarini xabardor qilish uchun;
- fuqaroning sog'lig'iga g'ayriqonuniy xatti-harakatlar yoki baxtsiz tasodif natijasida zarar yetkazilgan deb gumon qilishga asoslar mavjud bo'lganida.

5.5. Shaxsga doir ma'lumotlar yo'qolgan yoki oshkor qilingan taqdirda, Operator Foydalanuvchiga shaxsga doir ma'lumotlarning yo'qolgani yoki oshkor etilgani haqida ma'lumot beradi.

5.6. Operator Foydalanuvchining shaxsga doir ma'lumotlarini ruxsatsiz yoki tasodifan kirish, yo'q qilish, o'zgartirish, blokirovka qilish, nusxa ko'chirish, tarqatish, shuningdek uchinchi shaxslarning boshqa noqonuniy harakatlaridan himoya qilish uchun zarur tashkiliy va texnik choralarini ko'radi.

5.7. Operator Foydalanuvchi bilan birgalikda Foydalanuvchining shaxsga doir ma'lumotlarini yo'qotish yoki oshkor qilish natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarning oldini olish uchun barcha choralarini ko'radi.

6. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

6.1. Foydalanuvchi quyidagilarga majbur:

6.1.1. Servisdan foydalanish uchun zarur bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlarni taqdim etish.

6.1.2. Shaxsga doir ma'lumotlarni to'ldirish ushbu ma'lumotlarda o'zgarishlar bo'lgan taqdirda yangilash.

6.2. Operator quyidagilarga majbur:

6.2.1. Olingan ma'lumotlardan faqat ushbu Maxfiylik siyosatining 4.1-bandda ko'rsatilgan maqsadlar uchun foydalanish.

6.2.2. Maxfiy ma'lumotlarni foydalanuvchining oldindan yozma ruxsatisiz oshkor qilinmasligini, shuningdek ushbu shaxsga doir ma'lumotlarga ishliv berish siyosatining 5.2-5.3. bandlardan tashqari, Foydalanuvchining uzatilgan shaxsiy ma'lumotlarini boshqa usullar bilan sotmaslik, almashish, e'lon qilish yoki oshkor qilmaslikni ta'minlash.

6.2.3. Odatda mavjud savdo operatsiyalarida bunday ma'lumotlarni himoya qilish uchun foydalanuvchi shaxsga doir ma'lumotlarining maxfiyligini himoya qilish choralarini ko'rish.

6.2.4. Shaxsiy ma'lumotlarning noto'g'riliqi yoki noqonuniy xatti-harakatlari aniqlangan hollarda, foydalanuvchining yoki uning qonuniy vakilining yoxud shaxsiy ma'lumotlar subyektlarining tekshirish davri uchun huquqlarini himoya qilish uchun vakolatli organning murojati yoki so'rovi kelib tushgan paytdan boshlab tegishli Foydalanuvchi bilan bog'liq shaxsga doir ma'lumotlarni bloklash.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Operator, Maxfiylik siyosatining 5.2.2., 5.3. va 7.2. bandlarida ko'zda tutilgan holatlardan tashqari, o'z majburiyatlarini bajarmaganda, foydalanuvchi tomonidan berilgan shaxsga doir ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish bilan bog'liq bo'lgan zararlar uchun, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'la oladi.

7.2. Agar maxfiy ma'lumotlar yo'qolgan yoki oshkor qilingan bo'lsa, Operator quyidagi maxfiy axborotlar uchun javobgar bo'lmaydi:

7.2.1. U yo'qolishidan yoki oshkor bo'lishidan oldin ommaviy ma'lumot bo'lganda.

7.2.2. Operator tomonidan qabul qilinishidan oldin ushbu ma'lumotni uchinchi shaxsdan olinganda.

7.2.3. Foydalanuvchi roziligi bilan ma'lum qilinganda.

8. NIZOLARNI HAL ETISH

8.1. Foydalanuvchi va Operatori o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha sudga borishdan oldin da'vo arizasini (nizoni ixtiyoriy hal etish to'g'risida yozma taklif) taqdim etish majburiydir.

8.2. Da'veni qabul qiluvchi, da'vo olingen kundan boshlab 30 kalendar kun ichida da'vogarni da'vosini ko'rib chiqish natijalari to'g'risida yozma ravishda xabar beradi.

8.3. Agar tomonlar kelisha olmasalar, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sudga topshiriladi.

8.4. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi ushbu Maxfiylik siyosatiga hamda Foydalanuvchi va Operatori o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi.

9. QO'SHIMCHA SHARTLAR

9.1. Operator foydalanuvchi roziligesiz ushbu Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish siyosatiga o'zgartirishlar kiritishga haqli.

9.2. Ushbu Siyosat shartlari Operator tomonidan Servisda joylashtirilgan standart shaklda belgilanadi, noaniq doiradagi shaxslar bilan bog'lanadi va faqat ushbu Siyosatga qo'shilish orqali qabul qilinishi mumkin .

9.3. Ushbu Siyosat foydalanuvchi tomonidan "Shaxsga doir ma'lumotlarimga ishlov berishga rozilik bildiraman" tugmasini bosish yoki <https://paramedics.uz> sayti sahifasining pastki qismida unga kirish paytidan boshlab kuchga kiradi va muddatsiz amal qiladi.

Xizmat operatori

PARAMEDICS MChJ

H/R: 20208000905637655001;

MFO: 00421:

STIR: 310393915;

Manzil: Toshkent, Sayram, 5-tor ko'cha/92

Email: hello@paramedics.uz